

VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakillantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 11 432 tani tashkil etmoqda, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 39 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 11 393 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 23 271,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 184,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 75,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 086,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 099,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,9 %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami * mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	23 271,1	108,5	3 184,5	75,3	20 086,7	116,6
Samarqand sh.	7 828,8	108,4	1 910,9	67,2	5 917,9	135,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	852,3	106,6	1,4	118,0	850,9	106,6
Oqdaryo	533,0	109,1	5,0	46,4	528,0	110,5
Bulung‘ur	1 412,2	109,6	28,8	121,2	1 383,4	109,4
Jomboy	807,3	109,2	6,0	5,9	801,3	125,4
Ishtixon	866,0	108,9	5,8	109,2	860,3	108,9
Kattaqo‘rg‘on	865,5	106,5	50,3	114,4	815,1	106,0
Qo‘shrabot	456,8	108,5	4,3	106,4	452,5	108,6
Narpay	1 116,2	108,5	5,7	95,7	1 110,5	108,5
Payariq	681,6	108,8	6,6	111,5	675,1	108,8
Pastdarg‘om	761,8	106,9	36,8	109,4	725,0	106,8
Paxtachi	407,8	108,6	4,5	82,5	403,3	108,9
Samarqand	2 569,0	108,7	793,7	102,9	1 775,3	111,4
Nurobod	345,2	107,8	4,2	106,5	341,0	107,9
Urgut	2 215,8	109,8	45,3	129,9	2 170,6	109,4
Toyloq	663,2	105,7	15,9	114,1	647,3	105,5

*)Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Urgut (109,8 %), Bulung‘ur (109,6 %), Jomboy (109,2 %), Oqdaryo (109,1 %), Ishtixon (108,9 %), Payariq (108,8 %) tumanlarida va Samarqand shahrida (108,4 %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘sish sur‘atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovaraylanmasi hajmi, statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 20 086,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,6 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,3 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur‘atiga ega hududlar, foizda



Yirik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur‘atiga ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 75,3 % ni va 3 184,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,7 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

**AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI**

Hududlar kesimida ma’lumot

	Hajmi mlrd. so‘m	O‘shish sur’atlari, foizda
Samarqand viloyati	5 486,0	106,2
Samarqand sh.	13 284,9	106,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	8 943,7	105,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	3 050,7	106,6
Bulung‘ur	6 929,5	107,2
Jomboy	4 222,2	106,6
Ishtixon	3 111,9	106,6
Kattaqo‘rg‘on	2 923,9	104,3
Qo‘shrabot	3 199,1	106,5
Narpay	4 874,1	106,5
Payariq	2 471,5	106,2
Pastdarg‘om	1 971,0	104,6
Paxtachi	2 661,7	106,9
Samarqand	9 341,8	106,4
Nurobod	2 107,5	105,7
Urgut	3 927,4	107,2
Toyloq	2 973,9	103,2

Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 486,0 ming so‘mni (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,2 % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (13 284,9 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (8 943,7 ming so‘m) va Samarqand (9 341,8 ming so‘m), Bulung‘ur (6 929,5 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha
chakana tovar aylanmasi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	23 271,1	108,5	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	23 271,1	108,5	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	-	-	-

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-sentabrida 10 914,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning jami chakana savdo hajmi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 12 356,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0 foizga o‘tdi.

2023-yilning yanvar-sentabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	23 271,1	108,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	10 914,7	119,2	46,9
Norasmiy sektor	12 356,4	115,0	53,1
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 099,3	105,9	9,0

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 819,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (330,4 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 279,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi 1 023,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 190,2 mlrd. so'mni, otlar 58,9 mlrd. so'mni, parrandalar 7,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining asosiy tarkibi quydagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA
(PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI**


	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2 099,4	105,9	819,5	102,3	1 279,9	108,4
Samarqand sh.	179,0	108,1	144,2	99,6	34,8	167,6
Kattaqo'rg'on sh.	220,4	98,0	85,8	84,6	134,6	109,0
tumanlar:						
Oqdaryo	120,0	104,7	7,7	76,1	112,3	107,5
Bulung'ur	190,9	114,1	69,5	162,9	121,4	97,4
Jomboy	153,1	117,0	80,9	68,6	72,2	159,9
Ishtixon	169,0	106,6	92,4	125,5	76,6	90,2
Kattaqo'rg'on	151,8	108,3	72,6	177,7	79,2	79,8
Qo'shrabot	90,0	104,2	12,5	57,8	77,5	119,6
Narpay	80,8	109,1	46,3	149,7	34,5	62,2
Payariq	159,8	108,6	44,4	81,5	115,4	124,6
Pastdarg'om	69,7	94,2	5,8	95,1	63,9	94,1
Paxtachi	93,6	110,1	36,6	121,1	57,0	104,0
Samarqand	89,5	115,0	11,3	2,0 m.	78,2	108,3
Nurobod	98,2	111,4	13,4	56,3	84,8	131,8
Urgut	119,0	101,5	63,2	88,5	55,8	121,6
Toyloq	114,6	88,0	32,9	87,0	81,7	88,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 17 280,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 121,9 % ni tashkil qildi.



Savdo aylanmasi ulushi

-  **Yirik korxonalar**
-  **Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 9 712,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 56,2 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
VA KICHIK KORXONALAR**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Toyloq (2,2 m.), Nurobod (2,1 m.), Bulung'ur (136,6 %) va Samarqand sh. (124,8 %) tumanlarida kuzatildi.

2024-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 3 081 tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 048 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm *	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. so'm	2023-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	17 280,7	121,9	7 568,1	163,2	9 712,6	101,8
Samarqand sh.	10 742,4	124,8	5 652,6	165,2	5 089,8	98,1
Kattaqo'rg'on sh.	283,8	102,4	0,3	20,9	283,5	102,8
tumanlar:						
Oqdaryo	419,3	106,0	-	-	419,3	106,0
Bulung'ur	374,6	136,6	309,5	143,7	65,2	110,9
Jomboy	243,1	101,3	22,0	69,4	221,0	106,2
Ishtixon	114,9	107,2	-	-	114,9	107,2
Kattaqo'rg'on	314,9	105,2	-	-	314,9	105,2
Qo'shrabot	34,7	107,0	0,04	28,0	34,7	107,3
Narpay	126,6	98,7	0,3	66,2	126,3	98,9
Payariq	96,5	100,7	-	-	96,5	100,7
Pastdarg'om	632,5	116,6	212,1	171,6	420,4	100,4
Paxtachi	14,1	108,1	0,1	21,9	14,0	109,7
Samarqand	1 435,8	114,4	474,5	179,7	961,3	97,0
Nurobod	74,6	2,1 m.	23,8	187,9 m.	50,8	145,5
Urgut	526,5	107,3	-	-	526,5	107,3
Toyloq	657,4	2,2 m.	352,2	157,2	305,2	3,9 m.

*)Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda